

"NA'MATAK" SHE'RI ULUG'BEK HAMDAM NIGOHIDA...

Yuldasheva Quvonchoy

UrDU magistranti

Oybek nafaqat Rus adabiyoti, balki G'arb adabiyoti namoyandalari asarlarini churur o'rgandi. Ayniqsa, Oybekni Rim she'riyatini yanada ruhlantirgan. Bu boradagi izlanishlar natijasida shoir she'rdagi shakl va mazmun g'oyalarining qay tarzda uyg'unlashishi va ta'sirchanlikka erishishi xususidagi ko'nikmalarga ega bo'ldi. Oybek ijodida, qolaversa, xalq kuylarining ham ta'siri sezilarli. Ijodiy jamoasini tobora shakllantirib borayotgan Oybek turk she'riyatining yirik namoyandalari bo'lmish Rizo Tavfiq, Abdulhay Hamid, Holid Faxriy, Nomiq Kamol, Ziyo Ko'kali singari ijodkorlar lirizmidagi ayrim o'xshash jihatlarni umumlashtirib o'ziga yetarlicha saboqlar oladi. Qolaversa, Oybek she'riyatida A.S.Pushkin, A.Blok lirizmi ham katta muvaffaqiyat keltirdi. Oybek va u bilan bir davrda ijod etgan shoir-yozuvchilar o'sha davr sho'ro mafkurasi iskanjasida ijod etishga mahkum edilar. Ularning erki va ozodligi shu darajada ta'qiblar ostida ediki, hatto, tinch ijod qilish ham juda tahlikali kechgan. Ammo, bu ijodkorlar mas'uliyatiga ta'sir ko'rsatmagan, ular yanada yaxshiroq ijod etishga o'zlarida g'ayrat topa olishgan. Oybek ijodida xamirturush vazifasini, asosan, lirik janr bajarib berdi. Oybek tadqiqotlarining ko'pgina qirralari o'rganilgan. Xususan, adabiyotshunos Ulug'bek Hamdam "Millatni uyg'otgan adib" to'plamidan o'rin olgan o'zining "Oybekning siyratini suvratiga aylantirgan shoh asar" nomli maqolasida shoir ijodiy faoliyati va shaxsiyatini yoritib berishga harakat qilgan. Maqolani o'qish jarayonida Oybek qalamiga mansub "Na'matak" she'rining badiiy tahliliga guvoh o'lamiz. Tanqidchi Ulug'bek Hamdam she'rni turfa ranglar jilosi bilan birgalikda tahlil qilishga uringan. Ulug'bek Hamdam "Na'matak" she'rini Boburning "Boburnoma", Tolstoyning "Urush va tinchlik", Dostoyevskiyning "Telba", Kamyuning "Begona" kabi asarlari bilan qiyos etib ketgan. Bu asarlar qatorida Oybekning "Na'matak" she'ri uning butun ijodidagi salmoqli ahamiyatga ega shoh asar deya qaraladi. Zero,

Oybek vahshiy qoyalarni ham yorib chiqqan na'matak misolida tasavvur etiladi. Yuqorida aytganimizdek, Oybek o'z kechmishlarini qalamga oladi. Agar shunday bo'lmasa "Na'matak" dek ajoyib san'at asari dunyoga kelmagan bo'lar edi:

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, quyoshning belanchagida.
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...

Tanqidchi qarashlari juda teran. Go'yo u Oybek qo'llagan so'z mahoratini to'liq anglagandek. Na'matak - nafis bir yaratiq. Uning chayqalishi juda mayin va suluv. Qolaversa, na'matak viqor bilan o'shshayayotgan qoyalar labida turib, o'zidan ancha yuksakroqda turgan quyoshga tik boqqan holda u bilan munosabatga kirishmoqchi. Shu o'rinda "nafis" sifatlashi "viqor", "quyosh", "yuksak" kabi so'zlar bilan kurashga kirishmoqda. Keling, e'tiborni keyingi misralar tahliliga qaratamiz:

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yanoqlarni tutib oltin bo'sachun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Bilamizki, na'matak o'z jozibasi va fusunkorligiga ega. Ammo, u vahshiy tog'larga ham chiroy berishga urinadi, o'shshaygan qoyalar labida o'sishga harakat qiladi. Shu o'rinda Ulug'bek Hamdam Bobur va Frans Kafkaning hayotiy jumllarini qiyoslab o'tadi: "Sening birla chiqishmoqlik dag'i bisyor mushkuldurur" degan Bobur misralari Kafkaning "Men sensiz ham, sen bilan ham yashay olmayman" misralariga o'xshatiladi. Xo'sh, tanqidchi bu o'xshatish orqali nima demoqchi? Haqiqatdan ham, na'matak she'rida go'zallik mujassam. She'rdagi tushunchalar yuqorida keltirilgan jumllar kabi na u yoqlikdir, na bu yoqlik. Go'zallik deb atalmish tilsim ham xuddi shunday. Umri davomida bosh kesmoq

bilan band bo'lgan jallod ham oxir-oqibat go'zallik deb atalmish tuyg'uga taslim bo'ladi. "Go'zallik odam tanlamaydi. U kutilmagan joydan hujum qilishi mumkin - xuddi na'matakdek". Biz shunchalar ta'rifini keltirgan na'matak – oddiy bir tup o'simlikdir. Na'matak vahshiy tog'ning, qoyaning ijod mahsuli. Bu ijod xuddi o'zi jallod bo'lsa-da yosh bolajonning shirin kulgusiga taslim bo'luvchi jallodning esankirab qolishidan ham go'zalroqdir:

Vahshiy qoyalarning ijodi,

Yuksakda raqs etib bir tup na'matak

Quyoshga bir savat gul tutib xursand.

Tabiat go'zalliklariga oshuftalik, Oybekning bolalikdan shuuriga singan. Shu sababli har bir yaratgan asarida tabiiylik, jonlilik hukmron.